



SIFAT YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

Karimberdiyeva Zuhraxon

Asaka tumani 23-umumta'lim maktabining

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

TAQRIZ

Mazkur metodik tavsiyada ona tili va adabiyot fanini o'qitishda "o'zbek tili" darsligidagi "**Sifat yasovchi qo'shimchalar**" mavzusining o'quvchilarga qanday qilib qiziqarli va yodda qoladigan bo'lib qolishi uchun bir necha maslahatlar, fikr-mulohazalar, metodik tavsiyalar beriladi, ananaviy va noa'naviy metodlar, o'yinlar orqali dars tashkil qilinadi. Mazkur metodik tavsiya darsda qo'llanganda o'quvchilarning mavzuga qiziqishlarini oshirish barobarida dars samardorligini oshirishga ham yordam beradi.

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashib boradi. O'quvchilar I va II sinfdan sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; III sinfdan sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; IV sinfdan ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi.

Sifatni tushunish uchun I sinfdan o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) ravishda olib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (I, II sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (III sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (IV sinf).

Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash



talab etiladi. O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma – qizil, shirin, yumaloq olma;(qanday?) ip – uzun, ko'k ip. Albatta, suhbat asosida o'quvchilar olma, ip so'zlari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so'zlar qanday? so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (Qanday daraxt? – Katta, chiroyli, sershox, ko'm-ko'k daraxt. Qanaqa shkaf? – Oynali, baland shkaf). Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatleri bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

O'quvchilar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan) so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish; 3) matndan kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni va unga bog'langan qanday? va qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish.

Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: "sifat" tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

"Sifat" tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning "predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xilxususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi, b) qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi, v) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog'i yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilar)ga katta o'rin beriladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun: 1)



berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday shaftoli? Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday kitob? Qalin, qizil kitob; 2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki); 3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini ayting kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darolarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda - roq qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarni va ko'm-ko'k, yam-yashil kabi sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi.

Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda -roq qo'shimchasi bilan qo'llangan yaxshiroq, aqlliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin, mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslaniladi.

Sifat yuzasidan o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Bilim:

1. Sifat, sifatning ma'no turlari;
2. Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lishi;
3. Ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi;
4. Ohang yordamida bog'lanishi;
5. Shakldosh, ma'nodosh sifatlar.

Ko'nikma:

1. Sifatning ma'no turlarini farqlashi.
2. Sifatga qanday? so'rog'ini bera bilishi.
3. Gap va matn tarkibidan sifatni so'roqlari orqali aniqlay bilishi.
4. Sifatlarni belgi bildiruvchi boshqa so'zlardan farqlay bilishi.
5. Sifat bog'lanib kelgan so'z orqali unga so'roq bera olishi. Sifatning otga bog'lanib kelishinibilishi.



Sifatni o'rgatishda yana rangli rasmlardan foydalanish juda katta samara beradi.

Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etib, uning hayot tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi, ularga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Masalan, tabiat tasvirlangan rangli rasm o'quvchilar diqqatiga havola etilib, quyidagi:

1. Rasmda rassom qaysi ranglardan foydalangan? Daftaringizga ranglar deb ikki nuqta qo'ying va ranglarni ifodalovchi so'zlarni yozing.

2. Osmon qanday tasvirlangan? Uni tasvirlovchi so'zlarni "osmon" so'zi bilan birga qo'llab yozing.

3. Tog' qanday tasvirlangan? Uni tasvirlovchi so'zlarni "tog'" so'zi bilan birga qo'llab yozing.

4. Rasmda qaysi hayvonni ko'ryapsiz? Hayvonning sifatlarini uning nomi bilan birga yozing.

5. Daraxtlarni kuzating. Unda nimani sezyapsiz? Shamolning xususiyatlarini qaysi so'zlar bilan ifodalash mumkin? kabi topshiriqlar berilsa, bolalar ko'rsatilgan rasmlar asosida sifatlar to'plamini yaratadi.

Masalan:

1-topshiriq asosida o'quvchilar quyidagi sifatlar to'plamini yaratishi mumkin. Ranglar: oppoq, ko'k, ko'm-ko'k, jigar rang, sariq, sap-sariq, qizg'ish, qora, yashil.

2- topshiriq asosida esa: tiniq osmon, bulutli osmon, ko'm-kok osmon, musaffo osmon, qora bulutli osmon, oq bulutli osmon, tinch osmon.

3- topshiriq: baland tog', qorli tog', archali tog', qoyali tog', qorsiz tog', cho'qqili tog'.

4- topshiriq: yirtqich ayiq, qo'ng'ir ayiq, beso'naqay ayiq, oq ayiq, beozor ayiq, masxaraboz ayiq va nihoyat,

5- topshiriq asosida: yoqimli shamol, sovuq shamol, qattiq shamol, mayin shamol, iliq shamol, tonggi shamol, kechki shamol, tog' shamoli.

Bir so'z asosida bir necha sifatli birikmalar tuzdirish o'quvchilar so'z boyligining qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi.

Ular tuzgan birikmalar asosida "Sifat - so'z turkumi" tushuntiriladi:

- Rasm asosida to'plagan rang bildiruvchi so'zlarni qanday so'zlar degan edik?

- Osmon, tog', shamol, ayiq so'zlari qaysi turkumga kiradi?

- Shu so'zlar orqali oldingi so'zlarga so'roq bering. Ular 1-2- sinflarda qanday so'zlar deb o'rganilgan?

- Belgi bildirgan so'zlarni bir so'z bilan nima deb nomlash mumkin?

Bu savollar o'quvchilarni muammoli vaziyatga soladi va ularda muammoni hal qilishga qiziqish uyg'otadi va intilishni yuzaga keltiradi.

Asosiysi, o'quvchilar mustaqil va amaliy izlanadilar. Til birliklarini o'zlari qidiradilar, topadilar va o'zlashtiradilar.



Natijada, "Sifatlar nimaning belgisini bildiradi? Ular qaysi so'zlar bilan bog'lanib keladi?" kabi savollarga bema'lol javob beradilar. Ular tushunchalarini yanada aniqlash maqsadida ta'limiy o'yinlar tashkil qilinadi.

DAVRA SUHBATI» metodi

Davra suhbatlari- O'quvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida O'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

"Davra suhbatlari" metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va o'quvchilardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o'quvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir o'quvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Konvertni olgan o'quvchi o'z javobini qog'ozga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

6x6x6

Bu metodni qo'llashda o'quvchilar 6 guruhga bo'linadi bunda. Bunday 6 xil rangdagi kartochkalardan foydalaniladi. Bir xil rangdagi kartochka egalari o'quvchilar bir guruhga birlashadilar. Har bir kartochkada 6 tadan topshiriq yozilgan bo'ladi. O'quvchilar savollarga guruh bo'lib javob beradilar. Agar kartochka egasining javobi to'liq bo'lmasa, guruhdoshlari uni qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirishlari mumkin. Bu metodning ahamiyati shundaki, o'quvchilar bir jamoa bo'lib, ham jihatlikda ishlashni o'rganishadi va guruhining g'olib bo'lishga harakat qiladi.

«Blef-klub».

Bu o'yin 3 bosqichli o'yin. 1-bosqichda siz shunda bo'lganiga ishonasizmi degan manoda savol beriladi. Savollarning qiziqarli bo'lishi o'yinni jonliroq chiqishiga yordam beradi. Javoblar ha yoki yo'q deb beriladi. To'g'ri javobni o'qituvchi o'qiydi. 2-bosqichda o'quvchilar 2 tadan qiziqarli savol topib keladilar. O'qituvchi qiziqarli savollar uchun baho qo'yadi. Do'skaga chiqqan o'quvchilar savollarga yuqoridagidek ha yoki yo'q deb javob berishadi. 3-bosqichda o'quvchilar bir bin bilan savol javob qilishadi. Bahs g'olib aniqlanguncha, yoki 5 ta savol o'ynalguncha davom ettishi maqsadga muvofiq. Bu o'yin o'quvchilarni savollar tuzish mahoratini shakllantiradi. Shu bilan birgalikda diqqatni to'plash, tezkor fikrlash ko'nikmasini oshiradi.

«Toza doska »

Bu o'yinda o'qituvchi doskaga savollarni tartibsiz yozib chiqadi. Savollar diagramma, kartadan, rasm holida ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi sinfni kichik



guruhlarga bo'ladi. O'qituvchi hozir o'qiydigan ma'ruzasida doskadagi barcha savollarga javoblar aytishini ma'lum qiladi. Guruhlarning vazifasi imkon qadar ko'proq savolning javobini topishdan iborat bo'ladi. Yangi mavzuni tushuntirib, bolalar birorta savolning javobini topdinglarmi deb so'raydi. Javobi topilgan savollar o'chiriladi. Qolib ketgan savol uyga vazifa qilib belgilanadi.

“Muzyorar” metodi

Ko'pchilik odamlar notanish vaziyatda (yangi sinf yoki yangi maktabda, kursning boshlanishida) bo'lganlarida o'zlarini jur'atsiz sezishadi. Ko'pincha bir-birlarini bilishmaydi. Agar xech bo'lmaganda bir kishi bilan tanish bo'lsalar, ular birga bo'lishadi.

Shuning uchun o'qituvchi (yoki boshlovchi) o'quvchilarga o'zlariga ishonch hissiyotini beradigan do'stona muhitni va ular o'zlari o'rganishlari kerak bo'lgan narsaga diqqatlarini qarata oladigan vaziyatni yaratishi kerak. Bunda Muzyorar usulidan foydalanish mumkin. Bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi «to'siq» niyo'qotishga qaratilgan usul.

Muzyorarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Taqdim etish

O'quvchi yoki ishtirokchilardan ular o'zlarini tanishtirishlari va o'zlari to'g'risida muayyan axborot berishlari suraladi. Ular taqdim etgan axborot saylanmasi sinf yoki kurs xususiyatiga bog'liq. Bu quyidagilar bo'lishi mumkin:

ism-sharifi

yashash joyi

qiziqishi

fanlarga munosabati

Bu axborot jadval shaklida katta qog'oz varag'iga yozib jamlansa yaxshi bo'ladi. Bu usul kam vaqtni oladi (har o'quvchiga 1-2 minut), biroq undan 30 kishidan ko'p guruhlarda foydalanib bo'lmaydi. Bizda ular haqida axborot kam bo'lgan, ulardagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun yaxshi, biroq u har doim ham guruh a'zolarining yaxshi tanishishlariga kafolat bermaydi.

Intervyu

Bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 5-7 minut vaqt beriladi. So'ng juftlikning har bir a'zosi butun guruhga o'z sherigi to'g'risidagi ma'lumotlarni biror qiziqarli faktni qo'shgan holda taqdim etadi.

Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtirokchilarga dadillik hissini beradi, biroq uni 25 kishidan ko'p guruhda qo'llash mumkin emas.

Jadvallar

Har bir ishtirokchiga flomaster va katta qog'oz varog'i beriladi. Qog'oz to'rtqismga bo'linib, har biriga quyidagi axborotni yozish topshiriladi:

yuqoridagi chap burchakda: o'zini bir so'z bilan tasvirlasin

yuqoridagi o'ng burchakda: nima bilan faxrlanishini yozsin



pastdagi chap burchakda: o'zi haqida qandaydir bir sirni oshkor kilsin (bu jiddiy sir bo'lishi majburiy emas, biroq shunday axborot bo'lsinki, u haqda ishtirokchilardan hech kim bilmasin)

pastdagi o'ng burchakda: o'z xobbisini chizib bersin.

(Jadvalning katakchalarini guruh xususiyatiga qarab o'zgartirish mumkin)

Hamma ishtirokchilar ishni tugatganlaridan keyin ular jadvalni oldlarida ushlab zalning o'rtasiga chiqishadi. U yoq-bu yoqqa o'tib ishtirokchilar bir-birlari bilan tanishadilar. Ishtirokchilar o'z ismlarini jadvallarga yozib, ularni devorga ilib qo'yishadi.

"Ikki qismli kundalik" metodi

O'tkazish bosqichlari:



Bu metod o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning tushunchalarini shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

Maqsad: O'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg'otish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tushunchalarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash.

Tushunchalar va ularning izohi o'qilayotganda savol berish yoki mazkur tushuncha yuzasidan o'z izohini berishga ruxsat etiladi, biroq fikrlar takrorlanmasligi so'raladi.

Bunda o'quvchilar individual (faol metod) yoki guruhlarda (interfaol metod) ishlashlari mumkin.



“ESSE” metodi

Yozuv malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usullar. Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko'rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usullardan foydalanish yaxshi imkoniyatlar beradi. Yozma nutqni rivojlantirishning quyidagi usullariga to'xtalamiz:

Esse – fransuzcha “essai” so'zidan olingan bo'lib, “sinov, analiz, tajriba, dastlabki loyixa” ma'nolarini bildiradi. Esse -shaxsning biror maqsadga mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta'lim oluvchi o'zining mavzu bo'yicha taassurotlarini, g'oya va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog'ozga tushurish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog'ozdan uzmasdan, to'xtalmasdan yozish. So'ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo'lishi e'tirof etilgan. Essening muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag'ishlab yozish tavsiya etiladi. Esse -ta'lim oluvchilarning darsda eshitgan ma'ruzasi yuzasidan idrok etgan, o'zlashtirgan tushunchalarini umumiy tarzda qisqa bayon qilib beruvchi xati hisoblanadi.

Asoslovchi esse - bu shunday esseki, unda muallif biror mavzu bo'yichap muayyan nuqtai - nazarga ega bo'lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asoslovchi dalillar keltiradi. Shundagina asoslovchi esse metodi bajarilgan bo'ladi. Esse metodi o'zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu metod orqali g'oyalarni erkin tarzda bayon qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avliyakov N.X., Namozova N.J. Muammoli o'qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. – 80 b.
2. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.
3. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. –208 bet.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2009.
5. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.